

## MAKTABGA YO'L

Salom, Madina!



Salom, Akmal. Bugun maktabga kelayotganimizda yo'l-transport hodisasining guvohi bo'ldik. Nima deb o'ylaysan, u nega ro'y berdi?

Balki, haydovchilar yo'l harakati qoidalariga rioya qilmagani uchundir.



Qadimda odamlar biror manzilga borish, yuk tashish uchun tuya va otlardan, ularga qo'shilgan aravalardan foydalanganlar. Ularni dastlabki transport vositalari deyish mumkin.



**Aholi zich yashaydigan joylarda yo'l harakatini tartibga solish, tirbandlikning oldini olish uchun svetoforlar kashf etildi.**



**Ilk svetofor 1868-yil Londonda o'rnatilgan.  
Dastlabki svetoforlarda faqat yashil va qizil chiroqlar bo'lgan.**

**1918-yil Nyu-Yorkda uch rangli svetofor o'rnatilgan.**



### **Haydovchilar svetofori:**

- qizil – harakatni to'xtatish;
- sariq – harakatga tayyorlanish;
- yashil – harakatlanish mumkinligini bildiradi.



### **Piyodalar svetofori:**

- qizil – harakatni to'xtatish;
- yashil – harakatlanish mumkinligini bildiradi.





Yo'l harakati belgilari yo'llarda harakatlanishga yordam beradi. Quyidagi belgilarni o'rganing.



**"Piyodalar o'tish joyi"** belgisi. Agar svetofor bo'lmasa, piyodalar o'tish joyidan yo'lni kesib o'ting. Yerusti piyodalar o'tish joyi yo'l qismida "zebra" chizig'i va "Piyodalar o'tish joyi" belgisi bilan ajratiladi.



**"Yerusti o'tish joyi"** belgisi. Bu belgi yaqin atrofda maxsus yerusti o'tish joyi borligini bildiradi. U orqali siz yo'lning serqatnov qismidan xavfsiz o'tib olishingiz mumkin.



**"Yerosti o'tish joyi"** belgisi. Ushbu belgi yaqin atrofda yerosti o'tish joyi borligini va yo'lning qatnov qismidan yerosti yo'lagi orqali xavfsiz o'tish mumkinligini bildiradi.



**"Piyodalar o'tish joyi"** belgisi. Bu belgi haydovchilarni yaqin atrofda piyodalar o'tish joyi va piyodalar borligidan ogohlantiradi.



**"Velosiped yo'lkasi"** belgisi. Bu belgi yaqin joyda velosipedchilar harakatlanishi uchun maxsus yo'lka borligini bildiradi.



**"Avtoturargoh".** Bu belgi avtomobillar to'xtab turishi mumkin bo'lgan maxsus joylarga qo'yiladi.

-  1. Qaysi bola yo'ldan to'g'ri o'tyapti?  
Sababini tushuntiring.
2. Yo'ldan xavfsiz o'tib olish uchun sizga qaysi qoidalar yordam beradi?
3. Maktabingizga boradigan yo'lda qanday piyodalar o'tish joylari bor?
4. Nima uchun yo'ldan o'tayotganda telefonda gaplashish mumkin emas?



Rasmlarga qarang. Qanday xatolarni ko'ryapsiz? O'ylab ko'ring, bunday vaziyatlar qanday holatlarga olib kelishi mumkin?

## Avtohalokat

 Dilnozani mактабга har kuni onasi mashinada olib kelar edi. Mashinada bolalar uchun maxsus о'rindiq bor edi. Har kuni mashinaga о'tirayotib, onasi avval Dilnozaga xavfsizlik kamarini taqib, keyin о'zi ham taqib olardi.

Dilnozaga bolalar о'rindig'ida о'tirish ham, kamar taqish ham yoqmas edi. Axir kattalarga о'xshab oddiy о'rindiqda о'tirish, orqa oynadan ko'chani tomosha qilib ketish yoki shunchaki mashina yurib ketayotganda ikki old о'rindiqning о'rtasida turib olish maza-ku! Lekin oyisi bunga ruxsat bermas, "Bu sening xavfsizliging uchun" deb, kamarni majurlab taqtirar edi.

Bir kuni uyga ketayotganda Dilnoza oyisiga bildirmay, xavfsizlik kamarini yechib qo'ydi-da, maza qilib atrofni tomosha qilib ketmoqchi bo'ldi. Shu payt oldinda ketayotgan mashina birdan to'xtab qoldi. Dilnozaning onasi tormozni bosishga ulgurmadi. Ularning mashinasi oldindagi mashinaga qarsillab urildi.

Oнаsiga hech nima qilmadi, chunki uning xavfsizlik kamari taqilgandi. Kamarni yechib qo'ygan Dilnoza qattiq zarbadan jarohat oldi. Yetib kelgan tez yordam mashinasi Dilnozani kasalxonaga olib ketdi. Tekshirib ko'rishsa, uning boshi yorilgan, qo'li singan ekan. Shifokorlar qizchaning qo'lini gipslab, bir necha kun kasalxonada olib qolishdi. Dilnoza xavfsizlik kamari nima uchun kerakligini ana shunda tushundi. Agar о'shanda kamari taqilgan bo'lganida, unga hech narsa qilmagan bo'lar edi.

Dilnozaning qo'li bir oyda bitib, avvalgiday bo'lib ketdi. Shundan beri Dilnoza qachon mashinaga о'tirsa, xavfsizlik kamarini taqib oladigan bo'ldi.

1. Nima uchun Dilnoza qattiq jahorat oldi?
2. Siz mashinaga о'tirganda kamarni taqib olasizmi?
3. Kamarni nima uchun taqish kerak?



Xavfsizlik kamari mashina falokatga uchragan paytda yoki birdan to'xtab qolganda yo'lovchini о'z joyida ushlab qolish uchun mo'ljallangan. Xavfsizlik kamari biror hodisa ro'y berganda og'ir jarohat olish ehtimolini bir necha marta kamaytiradi.



*Xavfsizlik kamari birinchi bo'lib samolyotlarga o'rnatilgan. Avtomobillarda esa xavfsizlik kamari ancha keyin paydo bo'lган.*



Kichik guruhlarda "Yo'llardagi xavfsizlik" plakatini chizing.



O'zingiz uchun "Maktabga boradigan yo'lda mening xavfsizlik qoidalarim" mavzusida qo'llanma yarating.